



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

Annotation. The article describes the factors that led to the emergence of medical linguistics, the current relevance of the field, its goals and objectives, the role of achievements of medical linguistics in linguistics and medicine.

Key words: *medical linguistics, human factor, concept, medical speech culture, iatrogenia, egrotogeny*

Hozirgi davr tilshunosligida antroposentrizm katta o'rinni egallaydi. Unga ko'ra tilshunoslik markazida inson turib, til o'z egasi bo'lgan inson omili bilan bog'liqlikda, undan ajratilmagan holda o'rganiladi. Tilni inson omili bilan bog'lab o'rganish tilshunoslik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Z.R.Polyutina ta'biri bilan aytganda, butun jahon tilshunosligining zamonaviy muammolari inson omili bilan birgalikda o'rganilib, o'z yechimini topmoqda [Полютина, 2013:1]. Endilikda inson faoliyatini tahlil qilish, uning til bilan aloqasi va nutqda tilning qay tarzda namoyon bo'lishi bugungi kun tadqiqotlarining markazida turibdi. Bu esa tilshunoslikning o'zi bilan bog'liq bo'lgan fanlar qatorida bog'liq bo'lmaganlari bilan ham aloqa o'rnatishiga sabab boldi. Natijada turli sohalar vujudga kela boshladi. Tibbiyot lingvistikasi ham ana shunday sohalardan biri hisoblanadi.

Yevropa tilshunosligida tibbiyot lingvistikasiga e'tibor o'zbek tilshunosligiga nisbatan ertaroq boshlandi. Buni biz I.V.Semenchuk, A.N.Tovstko, O.D.Vishnyakova, Z.R.Polyutina, B.Juganova, Y.L.Viktorova [5], G.Alekseyeva [6] kabilarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Tilni inson omili bilan bog'lab o'rganish bu sohaning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida rivoj topishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan ishlab chiqilgan, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Konsepsiya asos bo'lib xizmat qildi. Konsepsiyada milliy tilimizning sofligini saqlash, lug'at boyligini oshirish, zamonaviy atamalar o'rniga uning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xilda qo'llanishini ta'minlash, turli sohalar bo'yicha yangi lug'atlar yaratish, mavjud lug'atlarni boyitish kabilari qat'iy belgilab qo'yildi.[2]

Tibbiyot lingvistikasi tilshunoslik uchun ham, tibbiyot uchun ham birdek amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, shu sohadagi izlanishlar asosan o'zbek tili leksikografiyasi, terminologiyasi, sun'iy intellekt rivojlangan bir davrda kompyuter lingvistikasi rivoji uchun katta hissa qo'shadi. Shu jumladan, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan milliy til korpusini yaratish uchun ham muhim manbalardan biri vazifasini ham o'taydi. Bundan tashqari, tibbiyot tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining boshqa bo'limlarida ham o'z izini qoldirmoqda. Tibbiy terminlar semantikasi, sintaksisi, kelib chiqish tarixi, frazeologiyasi, tibbiyot tilini bezovchi tasviriy vositalar kabilardagi izlanishlar shular jumlasidandir.

* Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti sherzodarabov7@gmail.com

Tibbiyot sohasi hozirgi kunda juda katta tezlik bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U qanchalik darajada tez rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa sohalarga nisbatan odamlarning kundalik hayotiga ham shunchalik yuqori darajada kirib bormoqda. Kundan kunga tibbiy-biologik, tibbiy-profilaktik, tibbiy-kimyoviy, tibbiy-texnik tushuncha va atamalar soni ham tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ayniqsa, ular orasida og'zaki ifodani talab qiladigan terminlar juda ko'p. Tibbiy terminlarni ommaga bir xil tarzda, tushunarli qilib yetkazib berish esa anchayin qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Chunki bemorlarning ba'zilar tibbiyotga yaqin, uni tushunadigan bo'lsa, ba'zilar esa bundan juda yiroq. Bu esa aholi orasida kasalliklarni noto'g'ri tushinishga olib kelmoqda, ayrimlar kasallik nomidan qo'rquvga tushib qolayotgan bo'lsalar, ayrimlar "oddiy kasallik ekan" deya e'tiborsizlikka yo'l qo'ymoqdalar. Bu esa bemorlar sonining oshishiga, tuzalishi mumkin bo'lgan bemorlarning ham vaqtida davolanmagani uchun kasallikning avj olib ketishiga sabab bo'lmoqda. Mana shunday hollarda tibbiyot lingvistikasi yordamga keladi.

Tibbiyot lingvistikasi bugungi kunda quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi:

- zamonaviy tibbiyotni tashkil etuvchi so'zlar va iboralarning to'liq variantini yig'ish;
- ular orasidan eng munosib va neytrallarini ajratib olish;
- yig'ilgan manbalar asosida yangi lug'atlar yaratish;
- tibbiy terminlarning elektron lug'atini tuzish;
- zamonaviy terminlarni o'zbekcha muqobiliga almashtirish, ularni aholi orasida bir xilda qo'llanilishini ta'minlash;
- bemor hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan so'zlar o'rniga xalq orasidan muqobillarini izlab topish;
- gender jihatdan aytilishi uyatli bo'lgan so'zlar o'rnini evfemizmlar bilan to'ldirish, kerakli o'rinlarda yangicha evfemizmlar yaratish;
- shifokorning nutq madaniyatiga katta e'tibor qaratish, tibbiy nutq madaniyatining sofliqi, ta'sirchanligini ta'minlovchi tasviriy vositalarni topish.

Bular orasida, ayniqsa, tibbiy nutq madaniyatiga e'tibor asosiy o'rinda turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shifokor va hamshiralarning bemorlar bilan noto'g'ri munosabatlari natijasida vujudga keladigan kasalliklar umumiy kasalliklarning 10%ini tashkil etmoqda [Qosimov, 2007:39-40] Bu umumiy holda yatrogeniya deb nomlanadi. Yatrogeniya yunoncha *iatros* –shifokor, *gennao* –yaratadi so'zlaridan olingan bo'lib, shifokor tomonidan o'zi bilmagan holda yaratiladigan psixologik xastaliklardir. [8] Shifokor bemorlar hayotini asrash uchun shu kasbni tanlasa-da, o'zi ham bemorlar hayoti uchun ba'zi hollarda xavf tug'dirib qo'ymoqda. Bemor hayoti shifokor qo'lida ekan, u o'ziga xos muloqot san'atiga ega bo'lishi, bemor bilan to'g'ri va o'rinli so'zlasha olishi kerak. Doimo bemor bilan muloqatda bo'lganida uning kasallik darajasi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishini inobatga olishi zarur. Ijtimoiy kelib chiqish deganda, ba'zilariga yaxshi, ba'zilariga yomon emas, u qanday fikrlasa, shunday fikrlab, kasbi, yashash doirasiga yaqin holda, kasalliklarni ham shu doiraga mos tarzda tushintirib, maslahatlar berishi kerak. Biz buni O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor"

asari misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bunda asar qahramoni Sherzod bilan bo‘lgan ikki holatni kuzatamiz:

“Sherzodlarning palatasiga Doktor opa degan vrach qaraydi. Bemorlar ham, hamshiralar ham – hamma uni shunday ataydi. Hech kim otini aytib chaqirmaydi. Sochlari duv oqargan, ammo ko‘z qarashlari tiyrak Doktor opa har kuni Sherzoddan qandoq ovqatlangani, qandoq uxlagani-yu hatto nima tush ko‘rganigacha sinchiklab so‘raydi. Sherzod uning tiyrak ko‘zlariga qarab yotadi-yu, ko‘nglida minnatdorchilik aralash allanechuk bir iymanish hissi uyg‘onadi. Xuddi restoranga kirib birovning hisobidan ovqatlangan odamdek qarzdor bo‘lib qolayotganga o‘xshayveradi”. [Hoshimov, 2018:6]

Bu holatda tibbiyot xodimi (Doktor opa) bemorga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lganligi, do‘stona muloqot qilishga intilganligi anglashiladi. Tabiiyki, mehribonlik me‘yoridan oshsa, bemorda qarzdorlik hissini uyg‘otadi. Keyingi matnlarga murojaat qilamiz:

“Professor tasmadagi egri-bugri chiziqlarni diqqat bilan ko‘zdan kechira boshladi. “Boshlandi, –deb o‘yladi Sherzod professorning har bir harakatini kuzatib yotarkan. –Birinchi savol: hozir sizni nima bezovta qilyapti? Ikkinchi savol: bolaligingizda qanaqa kasallarga chalingansiz? Uchinchi savol: ko‘pdan beri yuragingiz sanchardimi? Chekasizmi va hokazo, va hokazo...”

Professor kasallik varaqasidan bosh ko‘tardi-da, negadir jilmaydi. Shunda burnining usti tirishib, teran ko‘zlarida samimiy bir nur porlab ketdi. Uning tabassumi shu qadar dilkash, shu qadar “yuqumli” ediki, Sherzodning o‘zi ham beixtiyor jilmaydi.

–Vrachlar psixologiyasini ancha yaxshi bilarkansiz, Samandarov! – dedi professor hamon jilmayib turarkan.

Sherzod esankirab qoldi. “Qiziq, bu odam nimani o‘ylayotganligimni qayoqdan bildi” degan fikr xayolidan lip etib o‘tdi. Beixtiyor ko‘zini olib qochdi.

– “Operatsiya” degan hikoyangiz menga maqbul bo‘ldi. – Professor Sherzodning qo‘lini yumshoq kafti orasiga olib, qon tomiriga barmog‘ini bosdi. – Operatsiya paytida xirurg eng yaqin odamini ham begona hisoblaydi, deganingiz to‘g‘ri. Shunaqa qilmasa, ikkilanib qolishi mumkin. “Meditzinada ikkilanish – mag‘lubiyat” degan so‘z.

“O‘qigan ekan-da– Sherzodning ko‘nglini birdan quvonch chulg‘adi. –Vaqt topganini qarang-a”. Sherzodning bu hikoyasi jurnalda chiqqan, har kim har xil fikr bildirgan edi. Hozir u shifokorning o‘zidan shunday gap eshitganiga quvonib ketdi.

– Yana bir gapingizga to‘la qo‘shilaman, –dedi professor hamon tomir urishini sanarkan. –Meditzina sohasida kadrlar tayyorlashga ayniqsa ehtiyot bo‘lish kerak. Yomon shifokorning qotildan farqi yo‘q. Rosti, uquvsiz doktorlar ko‘payib ketmoqda.

– Bunaqalar hamma sohada bor, – dedi Sherzod jilmayib.

–Meditzinada bo‘lmasligi kerak! –Professor qoshini chimirdi. – Menga qolsa, medik bo‘lishni havas qiladiganlar avval bir-ikki yil kasalxonada ishlashlari kerak. Murdani ko‘rsa, labiga uchuq toshadigan chalamulla vrachlarni ko‘rgani ko‘zim yo‘q!

– Endi, do‘xtir, hozir qaysi institutga borsangiz, tanish-bilishlarning bolasi kiradi, –Sayfi Soqiyovich yotgan joyda karavotni g‘irchillatib o‘nglanib oldi. –Shunaqa bo‘lganidan keyin iloj qancha.

Professor unga vazmin nazar tashladi-yu, Sherzodga imladi:

– Qani, o‘ttiring-chi, yurakni eshitib ko‘raylik. – Uning ko‘zlarida yana o‘sha samimiy o‘t porladi. – Yozuvchilarning qalbi nozik bo‘ladi, deyishadi. Yo tanqid qilib pishitib qo‘yishganmi?

Sherzod jilmayib yelkasini qisibqo‘ydi.

“Nahotki tanqidiy maqolalarni ham o‘qisa bu odam?” –deb o‘yladi hayron bo‘lib. U aniq fan mutaxassislari ko‘pincha adabiyot, san‘atni chuqur tushinishini bilar, ammo bunchalik deb o‘ylamagan edi. Kuragiga fonendaskopning muzdek halqasi tegishi bilan vujudiga xushnud bir yengillik sezdi.

Qiziq, har gal Doktor opani ko‘rganida uyg‘onadigan qarzdorlik hissi hozir uni qiynamas, professor bilan o‘zining o‘rtasida qandaydir tabiiy yaqinlik paydo bo‘lganidan shod edi. Shunda u professor gapni bekorga boshlamaganini, o‘rtada yaqinlik tug‘dirish uchun shunday qilganini birdan tushindi-yu, ko‘nglida hayrat aralash quvonchli bir xitob yangradi. “Obbo, professor-ey! Ustaligini qarang”.” [Hoshimov,2018:19-21]

Yuqoridagi matnlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Doktor opa oldida paydo bo‘lgan qarzdorlik hissi professor oldida yo‘qoldi. Chunki professor tekshiruvni har doimgi so‘roqlar bilan emas, bemor hayotiga, kasbiga kirib borgan holda boshladi. Bemorday o‘ylab, bemor kabi fikrladi. Bu esa bemorga ruhiy erkinlik bag‘ishladi. Shifokor bemorning ijodkorligidan xabardorligini sezdirmay, uning ijodi haqida suhbatlashar ekan, tekshiruvni ham to‘xtatmadi. Yuragi nima sababdan xastalanganligini ham uning yashash tarzidan, ochiq-oydin so‘ramagan holda bilib olishga harakat qildi. Muloqotda bu shaklan so‘roq, ammo mazmunan tasdiq, ta‘kidni ifodalagan “Yozuvchilarning qalbi nozik bo‘ladi, deyishadi. Yo tanqid qilaverib pishitib qo‘yishganmi?” jumlasidan anglashiladi. Shu bilan birga, adresant “beparvoroq bo‘ling” demoqchi. O‘z navbatida, bemor (Sherzod) ham professorning nutqiy mahorati va madaniyatiga qoyil qoldi. Tibbiy nutq yoki muloqotda so‘zlash mahorati, nutq odobi, muomala madaniyatiga e‘tibor qaratish shifokorning bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘ya olishi, uni tezroq davolay olishi uchun juda muhimdir.

Tibbiy nutq madaniyati va tibbiy deontologiya masalalarida faqat shifokor bilan bemor munosabati emas, balki bemor bilan bemorning munosabati ham muhim o‘rin tutadi. Bir bemorga boshqa bemor so‘zining salbiy ta‘siri ham kasallikning zo‘rayishi, yangi alomatlarining yuzaga kelishi yoki boshqa xastalikning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu tibbiyotda *egrotogeniya* deb nomlanadi. Egrotogeniya lotincha *aegrotus* –kasallik, yunoncha *genes* – sababchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, “kasallikka sabab bo‘luvchi” degan ma‘noni anglatadi. Lekin tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, egrotogeniya kasalliklari yatrogeniya kasalliklariga nisbatan yengilroq kechadi.[7]

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, tibbiyot lingvistikasi bugungi kunda fanlarning integratsiyalashuvi natijasida kelib chiqqan va zamonaviy o‘zbek tilshunosligi yangi rivojlanish bosqichga ko‘tarilganligidan dalolat beruvchi navqiron sohadir. Bu sohani rivojlantirish esa tibbiy nutq madaniyati masalalari

bilan cheklanmay, tibbiy terminologiya masalalarini o'rganish, tibbiy atamalar lug'atlarini ko'paytirish, o'zbek tilidagi tibbiy termin va atamalar korpusini yaratish vazifalarini amalga oshiruvchi istiqbolli tadqiqotlarga bog'liq. Zero, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot va amaliy ishlar natijasi ko'plab insonlar hayotini saqlab qolish, xavfli kasalliklar, ularning oqibatidan ogohlantirish, sohada malakali kadrlarni tayyorlash, umuman, soha lingvistikasi taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Полютина З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития /Медицинский вестник Башкортостана. Том 8, 2013. – 132 с.
2. 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Qosimov E.Y. Shifokor nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. –163 b.
4. Hoshimov O'. Nur borki, soya bor. –Toshkent, 2018.– 283 b.

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Жўбанов уеңбектериндеги сөзтаңым негиздери (Q.Жўбанов сөзтаңымындаг ‘ы лексикология мәселелери)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O‘zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho‘ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o‘zbek tillarida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po‘latova S.M.</i>	<i>O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O‘zbek tili milliy korpusi uchun so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo‘rayeva D.R. Qo‘shayeva N.E.</i>	<i>O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg‘iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o‘rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика негизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тишина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositii” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
Yusupova D.Y.	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
Қалиев Е.М.	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
Yuldasheva M.M.	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
Ashurbayeva R.Q.	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
Istamova S. I.	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
Qobilova A.B.	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
Toshtemirova S.	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248